

## O‘ZBEKISTONDA MEDIATSIYANING RIVOJLANISHIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Tayyorladi: **Do‘smatov Jasurbek**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

**Annotatsiya:** Milliy qonunchiligimizda mediatsiya instituti yangi institutlardan biri bo‘lishiga qaramasdan, uni huquqiy tartibga soluvchi normativ huquqiy baza mamlakatimizda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda, hamda uni qo‘llash bilan bog‘liq amaliyotda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mediatsiyaning rivojlanishidagi mavjud muammolar atroflicha tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** mediatsiya, uchinchi tomon, nizolarni hal qilish, mediatsiya jarayoni, mavjud kamchiliklar, yechim.

**Kirish.** Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzidagi huquq bilan hal qilinayotgan barcha nizolarning 35–40 foizi mediatsiya yo‘li bilan hal qilinadi va mediatsiya tartibida hal qilingan nizolarning tahminan 85 foizi kutilgan ijobiy natijani bermoqda<sup>1</sup>.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, mediatsiya fuqarolik-huquqiy nizolarni hal etishda juda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, anglo-sakson huquqiy tizimida yarashtiruv jarayonlari rivojlangan, shuningdek mediatsiya Yevropa davlatlarida keng tarqalgan. Ohirgi o‘n yillikda Yevropa hamjamiyati doirasida mediatsiyaga ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoyasini ta’minlash imkoniyatlaridan biri sifatida murojaat etish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Mediatsiyani o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadbirlarda uning samaradorligi bo‘yicha bir qancha raqamlar keltiriladi. Masalan, AQShda mazkur protseduradan o‘tgan ishlarning 95 foizi sud muhokamasigacha yetib bormagan. Germaniyada mediatsiyaning ko‘rsatkichlari katta taassurot qoldiradi. 90 foizdan ko‘proq muzokaralar taraflarning kelishuv bitimi bilan yakunlangan. Buyuk Britaniyada 90–95 foiz nizoli holatlar sud muhokamasigacha hal etiladi. Yevropada mediatsiyaning samaradorligi o‘rtacha 40–80 foizni tashkil etadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturining 79-bandida sudgacha fuqarolik va iqtisodiy nizolarini hal etishning asosiy tushunchalari, maqsadlari, vazifalari, mexanizmlarini belgilovchi “Yarashtiruv jarayonlari

<sup>1</sup> Жошева А.А. Медиация как способ досудебного урегулирования споров.

<http://www.sudkazybekby.kz/ru/mediatsiya-kak-sposob-dosudebnogo-uregulirovaniya-sporov.html>

(mediatsiya) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilab berilganidan so‘ng keng jamoatchilik tomonidan mediatsiyani jarayonini o‘rganish, ushbu nizolarni sudgacha hal etish usulining O‘zbekistonga tadbiiq etish choralari ko‘rila boshlandi.

03.07.2018-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekistonda mediatsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan tan olinishiga asos bo‘ldi. Lekin O‘zbekiston aholisini ushbu usulni qo‘llashga, nizolarni sudgacha olib bormaslikka, o‘zaro ishonch asosida tuzilgan mediativ bitimlarga amal qilishga tayyorlash masalasi ko‘ndalang turibdi.

Milliy qonunchilikda mediatsiya instituti yangi institutlardan biri bo‘lishiga qaramasdan, uni huquqiy tartibga soluvchi normativ huquqiy baza mamlakatimizda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda, hamda uni qo‘llash bilan bog‘liq amaliyotda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘tgan davr professional mediatorlarni o‘qitish mobaynida yanada takomillashtirildi, ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida TDYU magistratura bosqichi talabalari uchun alohida mutaxassislik tashkil qilindi, nodavlat notijorat tashkilotlari shaklida mediatsiya markazlari tashkil etildi, mediatsiyani nafaqat suddan tashqari, balki ishni sudda ko‘rish jarayonida amalga oshirishning protsessual mexanizmlari ishlab chiqilib, iqtisodiy va fuqarolik protsessual qonunchiligiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. O‘z navbatida, islohotlarning hozirgi bosqichida davlat organlarida nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlar faoliyatini takomillashtirish, nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlar sifatida fuqarolar hamda tadbirkorlarning ularga bo‘lgan ishonchini oshirishni taqozo etmoqda. Yuqori aytib o‘tganimizdek, mediatsiya tushuncha va uning mohiyati O‘zbekiston fuqarolariga umuman yangi tushuncha hisoblanmaydi. Chunki bizning qonunchiligimizda mediatsiyaning elementlarini o‘zida aks ettirgan yarashuv va kelishuv tizimlari mavjud. Lekin mediatsiya jarayonlari xorijiy davlatlarda shunisi bilan xarakterlanadiki, mediatsiya fuqarolardan o‘zaro kelishuvning ijrosini ongli ravishda ta‘minlashni, mediatsiya jarayonining sud qarorlaridan afzalligini aqlan tushunishni talab etadi.

Hozirgi kunda sud-huquq islohotlarining kuchaytirilishiga qaramasdan, nizolarning soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa fuqarolarning qonunga bo‘ysunmaslik kayfiyatining kuchayishini yoki sud tizimiga nisbatan ishonchning yo‘qolayotganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan mediatsiya jarayonlari esa vaqtdan yutish uchun foydalanilagan vositaga aylanib qolishi mumkin.

Chunki “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunning 29-moddasida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud

majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o‘zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o‘rtasida yozma shaklda mediativ kelishuv tuzilishi, davlat organi yoki boshqa organ tomonidan qaysi shaxsning manfaatlarini ko‘zlab da’vo taqdim etilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs mazkur davlat organining yoki boshqa organning ishtirokisiz mediativ kelishuv tuzishga haqliligi, mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan<sup>2</sup>.

Mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar o‘z huquqlarini himoya qilinishini so‘rab sudga murojaat etishga haqliligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarmasligi hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. Faqatgina mediativ bitim ixtiyoriy ravishda ushbu bitimda belgilangan yoki taraflar kelishgan tartib va muddatlarda ijro etiladi. Bir taraf mediativ bitimda olgan o‘z majburiyatlarini bajarmasa, boshqa taraf sudga uning majburiy ijrosini qonun bilan belgilangan tartibda bajarishni talab qilgan holda sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli. Bu qoidalar esa firibgarlikni o‘ziga kasb qilib olgan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun vaqtdan yutish imkonini berishi mumkin.

Shuning uchun ham Germaniya qonunchiligida bo‘lgani kabi majburiyatni bajarmaganlik va nizoni mediatsiya tartibida hal qilish to‘g‘risida kelishuv imzolanishiga qaramasdan, sababsiz hozir bo‘lmaganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish zarur.

Bundash tashqari, mediatsiya tartibini keng ommaga yoyish uchun sudlarning mediatsiyani qo‘llash imkoniyatlari, ya’ni xuddi Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatalari kabi ariza qabul qilinishidan avval nizoning mediatsiya jarayonida ko‘rib chiqilishining majburiyati qonun normalari bilan belgilab berilishi va Fuqarolik va Iqtisodiy protsessual kodeklariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi zarur.

Shuningdek, sudyalarning ham mediatsiya imkoniyati va afzalliklarini taraflarga yanada faolroq tushuntirib, nizoni tinch yo‘l bilan hal qilishga taraflarni rag‘batlantirishlari, taraflarga nizoni insof bilan hal qilish uchun protsessual imkoniyatlar berishlari (masalan, ishni ko‘rishni nomuayyan muddatga to‘xtatib turish yo‘li bilan), nizoni hal qilishga urinishdan asossiz bosh tortganlik uchun qonun doirasida sanksiyalar belgilashlari mumkin.

Shuningdek, mediatsiya institutini joriy etishdagi muammolari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

-mediatsiyaning mohiyati va uning afzalliklari to‘g‘risida, uni qo‘llash tartibiga

<sup>2</sup> “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun

oid fuqarolar va tadbirkorlarimizda huquqiy ong va madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi:

-professional mediatorlarni tayyorlashni sifat jihatdan nazorat qiluvchi mexanizmning mavjud emasligi:

-fuqarolar hamda tadbirkorlar mediatorga sudga nisbatan yetarlicha ishonch bildirmasliklari;

-mediatorlarning professional kadrlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi;

-mediatorlarni tayyorlash kurslari uchun ajratilgan o‘quv soatlari hajmining kamligi;

-mediativ kelishuvni majburiy ijro qilish mexanizmining protsessual qonunchilikda aniq belgilanmaganligi;

-davlat organlari va sudlarda professional mediatorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi;

-qonunda noprofessional mediatorlar hisobini yuritish masalasi ham ochiq qoldirilganligi;

-ayrim toifadagi ishlar bo‘yicha mediatsiya o‘tkazilishining majburiy tartibi belgilanmaganligi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish, shuningdek milliy qonunchilikda mediatsiya instituti yangi institut ekanligini hisobga olgan holda, ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar yaratish, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, monografik tadqiqotlar olib borish, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratish, keng targ‘ibot, tashviqot ishlarini olib borish, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqishni, plenum qarorlari loyihalarini tayyorlash, mediatsiya institutining mazmun-mohiyati va afazalliklarini aholi va tadbirkorlar o‘rtasida, shuningdek ommaviy axborot vositalari, internet resurslarida foydalangan holda tizimli ravishda targ‘ibot va tashviqot qilish ishlarini amalga oshirish, barcha sud binolarida mediatsiya xonalarni tashkil qilish va professional mediatorlar reestriga kiritilgan mediatorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni ko‘rgazmali joylashtirish, mediatsiya institutni rivojlantirishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilish va o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, mamlakatimizda mediatsiya institutini jadal rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish va unda mediatsiya institutini jadal rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasini” tasdiqlash va unda amaldagi qonunga va kodekslarga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish hamda nodavlat-notijorat tashkilot maqomiga ega bo‘lgan, professional va noprofessional mediatorlarning a‘zoligiga asoslangan O‘zbekiston mediatorlar palatasini tashkil etish va uning asosiy vazifalarini belgilash masalasini nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mediatsiya instituti jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida yuzaga keladigan fuqarolik, mehnatga oid va iqtisodiy nizolarni

o‘zaro maqbullashtirish hamda taraflarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi. Mediatsiyadan foydalanishga monelik qiladigan omillar mavjud bo‘lmagan hollarda tadbirkorlik subyektlari nizo bo‘yicha mediatsiyadan foydalanishga harakat qilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### References

1. Bercovitch, J., & Kadayifci-Orellana, S. A. (2009). Religion and mediation: The role of faith-based actors in international conflict resolution. *International Negotiation*, 14(1), 175-204;
2. C. Moore. *The Mediation Process: Practical Strategies for resolving Conflict* (London, 1996), p. 14;
3. Ott, M. C. (1972). Mediation as a method of conflict resolution: Two cases. *International Organization*, 26(4), 595-618;
4. <https://www.nyed.uscourts.gov/mediation>
5. Jones, D. L. (2000). Mediation, conflict resolution and critical theory. *Review of International Studies*, 26(4), 647-662;
6. Moses, M. L. (2017). *The principles and practice of international commercial arbitration*. Cambridge University Press;
7. Douglas, S. (2008). Neutrality in mediation: A study of mediator perceptions. *Law and Justice Journal*, 8(1), 139-157;
8. Secretary-General, U. N. (2012). *United Nations guidance for effective mediation. Annex I of the Report of the Secretary-General: Strengthening the role of mediation in the peaceful settlement of disputes, conflict prevention and resolution*, UN Doc A/66/811, 25;